

**XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARIDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH
METODIKASINING SHAKL VA METODLARI**

Ashurova Madina Shuhrat qizi

Annotatsiya: Mehnat tarbiyasi, bolalarning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga foydali individualar sifatida o'sishida muhim ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi — bu xalqning madaniy merosi bo'lib, unda hikoyalari, ertaklar, afsonalar va naqlar orqali mehnat, sabr-toqat, ijodkorlik va boshqa muhim axloqiy qadriyatlar taqdim etiladi. Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari, shuningdek, ushbu ijodiy asarlar yordamida bolalarda mehnatga bo'lgan munosabatni qanday shakllantirish, o'qitish jarayonida xalq og'zaki ijodidan foydalanish, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, mehnat tarbiyasi, o'quvchilar, metodik shakillar, o'qitish usullari, innovatsion usullar, mantiqiy fikirlash, ta'lif tizimi.

Аннотация: Трудовое воспитание имеет важное значение для личностного развития и роста детей как личностей, полезных обществу. Фольклор – это культурное наследие народа, которое представляет трудолюбие, терпение, творчество и другие важные моральные ценности через рассказы, сказки, легенды и сказания. Воспитательные возможности фольклора, а также способы формирования у детей отношения к труду с помощью этих творческих произведений, использование фольклора в учебном процессе способствуют развитию логического мышления и творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: фольклор, трудовое воспитание, учащиеся, методические формы, методы обучения, инновационные методы, логическое

мышление, образовательная система.

Abstract: *Labor education is important for children's personal development and growth as individuals useful to society. Folklore is the cultural heritage of the people, which presents hard work, patience, creativity and other important moral values through stories, fairy tales, legends and tales. The educational possibilities of folklore, as well as how to form children's attitude to work with the help of these creative works, the use of folklore in the teaching process, helps to develop students' logical thinking and creative abilities.*

Key words: *folklore, labor education, students, methodological forms, teaching methods, innovative methods, logical thinking, educational system.*

Mehnat inson hayotining sir mazmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog'liqlarini mustahkamlaydilar, o'z kelajaklarini yaratadilar. O'zbek xalqining og'zaki ijodi ma'naviy madaniyat shakllarini va rivojlanishi qonunlar asosida shakllanib va rivojlanib, xalqning tarixiy rivojlanishi qonunlar asosida shakllanib va rivojlanib, xalqning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy va sinfiy munosabatlari, milliy psixologiya va harakteri o'ziga xosligi bilan, boshqa mamlakatlar bilan madaniy avlodlari bilan belgilangan o'zining xususiyatlariga ega. Shuning uchun o'zbek xalq og'zaki ijodida samimiyatni tarixiy rivojlanishini, undagi sinfiy va ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri ochib berishga, dunyo qarashni rivojlantirish darajasini bilishga ko'maklashadigan holatlar bilan bir qatorda ilg'or g'oyalarni yosh avlodni an'analarida tarbiyalashda foydalanish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Faqat yaxshi mehnat qilib, inson maqsadga erishishni va baxtli bo'lish mumkin. Bu fikrni xalq bolalarga ibtidoiy jamoada, so'ng feodal va boshqa davrlarda ham singdirgan. Bizning fikrimizcha, kasb-hunarga qiziqtirishda mehnat an'analarini qo'lash pedagogik-psixologik yondashuvga quyidagi sifatlar kiradi: mutafakkirlar merosidan foydalanib o'quvchilarda oila manfaati uchun mehnat qilishga qiziqishini shakllantirish. mehnat qilish ehtiyoji va qobiliyatini

rivojlantirish; turg'un iroda sifatlarini tarbiyalash; mahalla, jamoatchilik tarbiyasini tarkib toptirish; oilada mehnat, kasb-kor, hunar madaniyati haqida tushunchalarni shakllantrish. O'quvchilar mehnat tarbiyasida ishlab chiqilgan tizimi quyidagi yo'nalishlarni ko'zda tutadi: mehnat tarbiyasining yaxlit tiziim doirasida milliy an'analardan foydalanishning turli shakllari, vositalari, usullari, metodlari va sharoitlarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish; o'quv yurtlari, oila, jamoatchilikning tarbiyaviy ishlari o'rtasida uzbek aloqa o'matish; pedagogika o'quv yurtlarining mehnat ta'lif yo'nalishiga "Xalq pedagogikasi" maxsus kursini kiritish bilan bo'lajak o'qituvchilarining mehnat an'analari to'g'risidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini kengaytirish va takomillashtirish; ota-onalar o'rtasida bolalarning mehnat tarbiyasi masalalari yuzasidan bir maqsadga yo'naltirilgan g'oyaviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish. O'quvchilarning mehnat tarbiyasida halq milliy an'analardan foydalanish tehnologiyasini takomillashtirishning pedagogik tizimi" deb nomlanuvchi ikkinchi bobda o'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analardan foydalanishning ishlab chiqilgan tizimi asosiga xalqning amaliy tarbiyaviy tajribasi, o'sib kelayotgan avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashning tarixan yuzaga kelgan va avloddan avlodga xalq og'zaki ijodi, o'yinlar, urf-odatlar, bayramlar, udumlar, ishlab chiqarish mehnati orqali uzatiladigan risolalari, shakllari va metodlari qo'yilgan. Xalq mehnat tarbiyasining tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tarixiy o'tmishda mehnat tarbiyasi sodda amaliy bilimlarga asoslangan bo'lib, maqsadga erishishning ma'lum prinsiplari va vositalariga ega bo'lgan. O'zbek xalq pedagogikasida mehnat kishisi, yuqori ahloqqa, amaliy aqlga ega bo'lgan, jismonan kamol topgan, ona tabiatning go'zalligini his qila oladigan yaratuvchi ana shunday risola sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning mehnat tarbiyasini qurishda biz ilg'or mehnat an'analaring, urf-odatlarning roliga alohida o'ren ajratadi, chunki ularda mehnat kishilarining ko'p asrli tarbiyaviy tajribasi, samarali pedagogik ta'sirning kattta potensial imkoniyatlari mujassamlangan. O'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analardan yaxlit foydalanishning nazariy modeliga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat bo'ldi: o'quv tarbiyaviy jarayonni intensifikatsiyalash, uni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish; mehnat tarbiyasi

maqsadlarini tubdan o'zgartirish; shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish; mehnatning ahloqiy qadrini tushunib yetish; mehnatga ahloqiy-qadriyatli munosabatda bo'lish.O'quvchilarning mehnat tarbiyasida ularning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, intellektual va ahloqiy rivojlanishi; ularning bilish va faoliyat ehtiyojlari hamda talablarining shakllantirilishi va qoniqtirilishi; muvaffaqiyatli mehnat faoliyatiga va umuminsoniy ahloqiy munosabatlar tizimiga jalb qilish asosiy maqsad qilib belgilangan. Mehnat tarbiyasi butun jarayonining ham mazmuniy, ham tashkiliy komponentlarini o'quvchilarni o'qitishni, tarbiyalashni va shaxsini rivojlantirishni qayta qurish shu maqsadga bo'ysunadi. Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi o'quvchilarda mehnat qilish qobiliyatini rivojlantirish, mas'uliyat hissini oshirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Buning uchun xalq og'zaki ijodidan foydalanish, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lismi va ularga xalq og'zaki ijodi asarlarini tahlil qilishni topshirish. Har bir guruh o'ziga tayinlangan asarni o'rganib, uning mazmuni va mehnat haqidagi g'oyalarini muhokama qiladi. O'quvchilarga mehnat bilan bog'liq maqollarni o'rganish va ularni hayotiy misollar bilan bog'lash. Masalan, "Ishning qiyin joyi yo'q" maqolasi orqali mehnatning qiyinchiliklariga tayyor turishni o'rgatish.Xalq raqslarini va qo'shiqlarini o'rganish orqali mehnat jarayonidagi jamoaviylikni va bir-biriga yordam berishni ko'rsatish. O'quvchilar bunday faoliyatlar orqali bir-birlari bilan aloqalarni mustahkamlashadi. O'quvchilarga mehnat haqidagi hikoyalarni aytib berish yoki o'qitish. Bu hikoyalarni orqali mehnatning ahamiyatini va uning natijalarini tushuntirish mumkin.O'quvchilarni faol jalb etadigan darslar o'tkazish. Masalan, dars davomida savol-javoblar, muhokamalar va rolli o'yinlar o'tkazish.Mehnat bilan bog'liq mavzularni qamrab oluvchi o'yinlar tashkil etish. Bu o'yinlar orqali o'quvchilar mehnat jarayonini qiziqarli tarzda o'rganadilar. O'quvchilarga kichik loyihamar berish, masalan, "Bizning kasblarimiz" mavzusida loyiha tayyorlash. Bu orqali ular turli kasblar va ularning ahamiyati haqida bilib olishadi.Maktabda mehnat tarbiyasi mavzusida tadbirlar o'tkazish, masalan, "Mehnat bayrami" yoki "Kasblar ko'rgazmasi". Bunday tadbirlar o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni

mehnatga rag'batlantiradi. Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasini shakllantirish metodikasi ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu metodika orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishadi, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar. O'qituvchilar xalq og'zaki ijodidan foydalanib, o'quvchilarning mehnatga bo'lgan munosabatini shakllantirishi va ularni faol hayotga tayyorlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Sh. M. Mirziyoev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". O'zbekiston-2018yil
2. A.Karimov. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997.-64 b
3. Лухманов, Д. Б. (2020). Мехнат тарбияси оркали ўқувчиларнинг ижтимоий ҳаётга мослашишларини таъминлаш. Academic Research in Educational Sciences.
4. Abdusamatov, A., & Mavlyanov, A. (2022). Influence of the Perfective Working Body of Fiber Cleaning Machines on the Aerodynamic Parameters. American journal of science and learning for development, 1(2), 24-30.
5. Эшбоева С. и др. БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЭКОЛОГИК ТУШУНЧАЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА КРЕАТИВ ЁНДАШУВ //Conferencea. – 2023. – С. 67-84.
6. Sobirovich, A. A. (2023). THE IMPORTANCE OF SEMIOTICS IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL DESIGN AND ANALYSIS OF SEMIOTIC SYSTEMS. Journal of Universal Science Research, 1(10), 17-22.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/oquvchilarning-mehnat-tarbiyasida-xalq-milliy-ananalaridan-foydalanish-metodikasi/viewer>